

DASTXAT MATNLARINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Usmonova Dono Sotvoldiyevna

Farg'ona davlat universiteti, Chet tillari fakulteti, Ingliz tili kafedrası, katta o'qituvchi

Ergashov Ulug'bek Akbarali o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, Lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi, 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7939645>

Annotatsiya: Nutq uchun faqat ma'lum so'zlardagi turlicha ma'nolarni bilish emas, balki ulardan muomala jarayonida foydalana olish, munosabatlarning, fikr-mulohazalar, hissiyotlarning eng nozik jihatlarini ham ifodalab berishga xizmat qilish muhim sanaladi. Nutqni shakllantirishdagi pirovard maqsad ham shu. Ammo ko'zda tutilgan matni shakllantirish uchun so'z va uning ma'nolarini bilishning o'zigina yetarli bo'lmaydi. So'zlovchi yoki yozuvchining niyati ana shu omillar bilan bir qatorda til birliklarining matnda o'zaro grammatik aloqasini ta'minlash tufayligina amalga oshadi. Boshqacha aytganda, nutq jarayonidagi til birliklariaro sintaktik munosabat fikrning to'laqonli ifodasida katta mavqeni egallaydi. Shu jihatdan dastxatlarda ham sintaktik xususiyatlar muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: dastxat, sintaktik xususiyat, funksional ekspressiv aspect, funksional stilistik aspect, morfologik jihat, atoqli va turdosh otlar.

Dastxat matnlarining leksik, morfologik hamda sintaktik xususiyatlari uning o'ziga xos alohida bir sistema hosil qilishini ko'rsatadi. Biz dastxatlarning ba'zi bir grammatik xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

Morfologik stilistika so'z shakllari sistemasini funksional ekspressiv va funksional stilistik aspektlar asosida tekshiradi.

Birinchi yo'nalishdagi tadqiqotlarda ekspressiv-emotsional ma'no ifodalovchi grammatik shakllar o'rganiladi. Ular o'z navbatida ot stilistikasi, sifat stilistikasi, olmosh stilistikasi, fe'l stilistikasi kabi so'z turkumlari bo'yicha bo'linadi.

Funksional stilistik tadqiqotda har bir funksional tilning o'z morfologik belgilari o'rganiladi. Adabiy tilning har bir funksional uslubi ekstralingvistik omillar ta'sirida so'z shakllarini alohida guruhlaydi, ya'ni adabiy tilda mavjud bo'lgan shakllardan biri biror nutq turiga xoslanish belgisiga ega bo'ladi. Biror funksional uslub adabiy tilda mavjud bo'lgan biror shaklni olsa, ikkinchisi aynan shu shaklni olmasligi mumkin. Shuning uchun bu aspektdagi tadqiqotda bir funksional uslubning so'z shakllari adabiy til so'z shakllariga, shuningdek, boshqa bir uslubning so'z shakllariga qiyoslanadi. Shundagina o'rtadagi farqlar hamda har bir uslubning o'ziga xos belgilari oydinlashadi.

Bir funksional uslubning so'z shakllarini adabiy tilning so'z shakllariga qiyoslab o'rganish yetarli bo'lmaydi. Chunki bir funksional uslubda qo'llangan morfologik shakllarning o'zi adabiy tilga oid bo'ladi. Masalan, adabiy tilda -lar shakli bo'lganligi uchun bu shakl dastxatlarda ham ko'p ishlatiladi. Ammo adabiy tildagi -lar shakli grammatik ko'plikdan tashqari qochiriq, kinoya, hurmat kabi ma'nolarni ham anglatadi. Shu ma'nolar funksional uslublarning so'zlashuv va badiiy nutq turlariga ham xosdir. Lekin dastxatlarda -lar shaklining asosan hurmat ma'nosigina qo'llaniladi.

Ko'rinadiki, adabiy tilning so'z shakllari umumiy sohasi har bir funksional uslubning so'z shakllari umumilliyning xususiy ko'rinishi hisoblanadi. Xususiyni umumiyga hamda boshqa bir xususiyga qiyoslab o'rganish birinchidan, har bir funksional uslubning o'z morfologik

belgi-xususiyatlarini o'rganishga imkon bersa, ikkinchidan, adabiy til morfologiyasini faktlar bilan to'ldiradi, uning to'laqonli bo'lishini ta'minlaydi.

Dastxatlarning morfologik xususiyatlari, ayniqsa, uning ko'p o'ziga xosliklarini ko'rsatadi. Jumladan, atoqli otlar. Aksariyat dastxatda kishi ismi va familiyasi ishtirok etadi:

Nigoraga! Doimo omad tilab

Yulduz! Imzo. (Shaxsiy arxivdan). Bu dastxat atoqli ot bilan boshlanib, atoqli ot bilan tugallanyapti: Nigora, Yulduz.

Bundan ko'rinadiki, dastxatlarning asosiy xususiyati ham atoqli va turdosh otlarning doimo qo'llanib kelishidir:

Eng yaqin ukam, suyuqli jigarim Umaraliga. Meni o'z qardoningiz, suyanchingiz o'rnida ko'rishingizni istayman. Bu kitob sizni ikkala ko'zi bilan ham qattiq yaxshi ko'rguvchi shoir akangizdan. Mehr ila A. O'ktam.22.1093.(Shaxsiy arxivdan). Bu dastxatda atoqli otlar qo'llanganligini ko'rish mumkin. "Iqboljon" so'zidagi "jon" otlardagi kichraytirish-erkalash affiksi bo'lib, hurmat ma'nosini ifodalagan.

Do'stlarim Gulchehra, Tursun Ali Muhammadga chin yurakdan, Rauf Parfi. 1.12.77. (Shaxsiy arxivdan). Bu dastxatda ham Gulchehra, Tursun Ali Muhammad, Rauf Parfi kabi atoqli otlar mavjud. Umuman olganda, atoqli otlarning qo'llanishi har bir dastxat uchun eng asosiy xususiyatlardan biridir.

Dastxatlar qisqa, asosan atoqli otlar bilangina ham yozilishi mumkin. Bu undagi tejamkorlik strukturasi hosil qilishdan dalolat beradi. Quyidagi misol fikrimiz dalili bo'la oladi:

Diloromxon va Rauf akaga. Muallif. Imzo. 19.08. 1986. (Shaxsiy arxivdan). Dastxatda Diloromxon, Rauf aka atoqli otlaridan boshqa va bog'lovchisi, -ga jo'nalish kelishigi affiksi hamda muallif so'zi bor, xolos. Biroq adresant gap bo'laklarini tejash bilan ana shu uch so'zdan iborat qisqa dastxati orqali o'z yaxshi niyatlarni izhor qila olgan.

Dastxatlarda egalik qo'shimchalarining qo'llanishida ham o'ziga xosliklar bor. Bu holat, asosan, egalik qo'shimchalarining shaxslar bo'yicha almashib qo'llanishida ko'rinadi.

Bundan tashqari, egalik qo'shimchalari dastxatlarda adresatga ijobiy munosabat, hurmat, qisman rasmiylik, tantanavorlik kabi ma'nolarni ifodalashi mumkin. Shuningdek, -lar qo'shimchasi dastxatlarda ko'plikni ifodalash bilan birga hurmat, taxmin, kuchaytirish, bo'rttirish, ta'kidlash kabi ma'nolarda ham qo'llanishi mumkin. Quyidagi dastxatda buni ko'rish mumkin:

Hurmatli Nabijon! Yozgan asarlaringiz zo'r. Ilohim umringiz ismingizga o'xshab boqiy bo'lsin. (Shaxsiy arxivdan). Bunda egalik kategoriyasining II shaxs ko'plik (asarlaringiz) (umringiz) shakllari qatnashgan. Bunda ismingizga, umringiz so'zlaridagi -ingiz affiksi hurmat ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan..

Shuni aytish kerakki, dastxatlarda -ga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi asosan atalganlikni bildiradi: Baxtiyorga, Muharramga, do'stinga, birodaringa kabi. Quyidagi misol fikrimizning dalili bo'la oladi: Nasl, millatimizning bo'lg'usi ijodkori Tavakkaljon! Uzoq-umr, o'qishlarida sobitlik, sog'lik tilab. Imzo. 17.01.1997 yil. (Shaxsiy arxivdan).

Dastxatlarda jo'nalish kelishigidagi atoqli otdan tashqari yana shaxs oti (ijodkor), mavhumlikni ifodalovchi otlar (nasl, millat, umr, sobitlik, sog'lik) ham uchraydi. Dastxat ravishdosh bilan tugallangan. Har bir dastxatda bo'lganidek, bunda ham sanoq sonlarni uchratish mumkin (17.01.1997). Sonlar arab raqamlari bilan berilgan.

Qadrdon Salimjon aka va Mamlakat opaga eng yaxshi tilaklar, ukalik mehri ila. Imzo. 25.02.91. (Shaxsiy arxivdan). Mazkur dastxatda predmetning belgisini bildiruvchi sifatlar mavjud. Qadrdon, eng yaxshi soʻzlari belgini bildiradi. Qadrdon yasama sifat boʻlsa, eng yaxshi orttirma darajadagi sifatdir.

Dastxat matnlarini tahlil qilish jarayonida dastxat boshida koʻproq belgi maʼnosini bildiruvchi sifatlarga duch kelamiz. Aziz, qadrdon, qadrlı, hurmatlı kabi.

Nutq hamisha rang-barangligi, turlichaligi bilan ajralib turadi. Nutqning vazifasi tilning turli sathlarini, bu sath birliklarining mazmun va vazifalarini nutq sharoiti bilan, soʻzlovchining maqsadi va imkoniyatlari bilan uygʻunlashtirib, muayyan holda fikr almashtirishni voqelashtirishdan iborat boʻladi. Bu kabi xususiyatlar esa dastxatlarda ham oʻz aksini topadi. Chunki dastxat adresantlari yozgan dastxatlarida davr muhitini, tilini ifoda etadi.

References:

1. Gulamova, D., & Usmonova, D. (2023). TILSHUNOSLIKDA EFEMIZMLARNING LINGUOKULTUROLOGIK TASNIFI. Академические исследования в современной науке, 2(13), 73-76.
2. Sotvoldiyevna, U. D., & Zafarjon, D. (2023). Turli Tillardagi Oʻxshatishlar Tarjimasining Lingvomadaniy Xususiyatlari. Miasto Przyszłości, 31, 330-332.
3. Sotvoldiyevna, U. D. (2022). Linguistic and cultural classification of euphemisms in Uzbek and English languages. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 140-143.
4. Usmonova, D. S., & Usmonova, K. E. (2022, October). PHONEME THEORY IN LINGUISTICS SCHOOLS. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 13, pp. 6-9).
5. Usmonova, D. S., & Djalolov, Z. J. (2022, October). THE ROLE OF CULTURE IN TRANSLATION PROCESS. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 8, pp. 160-163).
6. Шокиров, Ш. И., & Юсупова, С. А. (2023). Инглиз Тилида “Poison-Захар” Концептининг Семантик Хусусиятлари. Miasto Przyszłości, 31, 241-245.
7. Aʼzamjonovna, Y. S. (2023). PHRASEOLOGICAL ISSUES IN MODERN LINGUISTICS. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 158-161.
8. Aʼzamjonovna, Y. S., & Akmaljonovna, N. X. (2023). USE OF SPORTS TERMS IN LINGUISTICS. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 162-164.
9. Aʼzamjonovna, Y. S., & Akmalidinovna, K. M. (2023). Sources of Technical Terminology. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS, 2(1), 37-40.